

UDC: 81-26

ORCID: 0000-0003-3559-6011

TIL – HUQUQNING YASHASH SHARTI

Gulyamova Gulnora Yakubovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi,
e-mail: g.gulyamova@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida til o'rganishning ahamiyati, til taraqqiyoti jamiyat va millat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi, har qanday hujjatning sifati kommunikativ va adabiy savodxonlikka bog'liqligi, o'zbek yuridik tilining ba'zi muammolari, tarjimachilik, tezaurus kabilar xususida fikr yuritiladi. Ilm-fan rivojlanayotgan bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimi oldiga yangi-yangi mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, zamonning o'zi soha mutaxassisidan bilimdon bo'lish bilan bir qatorda, davlat tilini puxta bilish, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili me'yorlarini to'liq o'zlashtirishni ham talab etmoqda. Xuddi shunday, hozirgi zamon yurist mutaxassisi jamiyatda barqarorlik va huquqiy tartibni o'rnatish maqsadida nafaqat yurisprudensiya qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirgan, balki ijtimoiy munosabatlar qonuniyatlari va huquqiy qoidalarni chuqur bilgan, o'z kasbining yetuk bilimdoni, shuningdek, til me'yorlarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u uchun qonunlar tabiatan adolatli va odamlar uchun tushunarli, ya'ni yaratilgan huquqiy hujjatlar tili batafsil, ravon bo'lishi kerak. Shu bois til va huquq bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. Hozirgi kunning eng dolzarb, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalaridan biri soha tilining tezaurusini tuzish, yuridik terminologiyani tartibga solish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: intellektual taraqqiyot, umumbashariy qadriyatlar, adabiy til, huquq, jamiyat, lug'at tarkibi, yuridik til leksikasi, qonun tili, yuridik texnika, yuridik terminologiya, tezaurus, tarjimachilik.

ЯЗЫК – УСЛОВИЕ СУЩЕСТВОВАНИЯ ПРАВА

Гулямова Гулнора Якубовна,

кандидат филологических наук,
доцент Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как важность изучения языка в системе образования Узбекистана, взаимосвязь языка и общества, нации, статус узбекского языка как государственного. Кроме того, в статье освещаются основы коммуникативной и литературной грамотности документа и некоторые проблемы узбекского юридического языка (перевод, тезаурус). В настоящее время, когда наука развивается, перед системой образования появляются новые задачи. В частности, требованием времени является не только владение знаниями по специальности, но и знание государственного языка, полного овладения нормами современного узбекского литературного языка. Следовательно, современный юрист должен быть не только профессионалом, обладающим глубоким знанием законов и правил общественных отношений с учетом специфики обновленного общества для установления стабильности и правопорядка в обществе, но и владеть языковыми нормами. Обеспечение верховенства закона в обществе – один из важнейших принципов демократическо-правового государства, для которого законы должны быть справедливыми по своей природе и понятными для людей, то есть язык создаваемых юридических документов должен быть подробным, свободным. Следовательно, язык и право – тесно связанные понятия. Одним из наиболее актуальных вопросов, которые необходимо решить сегодня, является составление тезауруса отраслевого языка, регулирование юридической терминологии.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, общечеловеческие ценности, литературный язык, право, общество, содержание словаря, лексика юридического языка, язык закона, юридическая техника, юридическая терминология, тезаурус, перевод.

LANGUAGE IS A CONDITION FOR THE EXISTENCE OF A LAW

Gulyamova Gulnora Yakubovna,
Associate Professor of the Tashkent State
Law University, Candidate of Philology sciences

Abstract. *This article discusses issues such as the importance of language learning in the education system of Uzbekistan, the relationship between language and society, nation, the status of the Uzbek language as a state language. In addition, the article highlights the basics of communicative and literary literacy of the document and some problems of the Uzbek legal language (translation, thesaurus). At present, when science is developing, new tasks appear for the education system. In particular, the requirement of the time is not only knowledge of the specialty, but also knowledge of the state language, full mastery of the norms of the modern Uzbek literary language. Consequently, a modern lawyer should not only be a professional with a deep knowledge of the laws and rules of public relations, taking into account the specifics of a renewed society in order to establish stability and law and order in society, but also possess linguistic norms. Ensuring the rule of law in society is one of the most important principles of a democratic state, for which laws must be fair by their nature and understandable for people, that is, the language of legal documents created must be detailed and free. Consequently, language and law are closely related concepts. One of the most pressing issues that need to be resolved today is the compilation of an industry language thesaurus, regulation of legal terminology.*

Keywords: *intellectual development, human values, literary language, law, society, dictionary content, legal language vocabulary, legal language, legal technique, legal terminology, legal thesaurus, translation.*

Kirish

Mustaqil mamlakatimiz erishayotgan ulkan yutuq va zafarlar haqida so'z ketganda, boshqa muhim sohalar qatori ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ham diqqatga sazovordir. Ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan va ishlab chiqilayotgan har qanday davlat hujjati ilm-ma'rifat rivoji, intellektual taraqqiyot, umum-bashariy qadriyatlar asosida har tomonlama yetuk zamonaviy kadr tayyorlashga yo'naltirilgandir. Darhaqiqat, bizga jamiyat talablariga mos, ta'lim sirlarini puxta o'zlashtirgan, o'zini jamiyat, davlat va oila oldida javobgar deb his qiladigan yangi avlod vakili – har tomonlama kamol topgan mutaxassislar kerak.

Ilm-fan rivojlanayotgan bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimi oldiga yangi-yangi mas'uliyatli vazifalar qo'ymoqda. Jumladan, zamonning o'zi soha mutaxassisidan bilimdon bo'lish bilan bir qatorda, davlat tilini puxta bilish, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili me'yorlarini to'liq o'zlashtirishni ham talab etmoqda.

Bu borada yurtimizda diqqatga sazovor ishlar jadal olib borilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida til o'rganish bo'yicha jiddiy o'zgarish va yangilanishlar sodir bo'lmoqda. Mamlakatimizda til ta'limi o'quv shakllari bo'yicha mashg'ulot turlarini yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada amalga oshirish, ta'lim sifatini ta'minlash pro-

duktiv ta'limning ustuvor funksional vazifalaridan hisoblanadi. Chunki millat, jamiyat taraqqiyoti, tarix jarayonlari, eng avvalo, tilda aks etadi. Unda xalq hayoti, milliy mafkura ifodalanadi, ro'yobga chiqadi. Demak, til inson faoliyatini boshqarib turuvchi muhim vosita, demak, til xalqning ma'naviy mulkidir.

Til taraqqiyoti jamiyat va millat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Milliy til mustaqil davlatning eng muhim ramzlaridan sanaladi. Til jamiyatda mulqot vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Har qanday mamlakatning til siyosati davlat tili maqomini mustahkamlashni nazarda tutadi, chunki davlat tili maqomi tilning har tomonlama rivojini kafolatlaydi. Har bir mustaqil mamlakat o'zining davlat tiliga ega ekan, u o'z ona tili ravnaqi uchun kurashadi.

Xuddi shu masala – o'zbek tilini davlat tili sifatida rivojlantirish va boyitish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. «Davlat tilining obro'-e'tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro'-e'tiboridir», deb alohida ta'kidlaydi muhtaram Yurtboshimiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yer yuzida o'zbek tilida so'zlashadiganlar 50 milliondan oshiq ekani, 65 ta xorijiy OTMda tilimiz o'rganilishi haqida aytib, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash vazifasini bajarish lozimligini uqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbuskorligi ostida o'zbek tilining davlat tili sifatida obro' va mavqeyini yanada oshirish bo'yicha tub chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Jumladan, Yurtboshimiz tomonidan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi kabi farmonlar imzolandi.

Mazkur hujjatlar bilan 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mamlakat Vazirlar Mahkamasi tarkibida Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi va ish yuritish asoslarini davlat tilida o'qitish markazi tashkil etildi. Yurtboshimiz 2019-yil 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: **"Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"**, deb alohida ta'kidladi.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni dasturilamal hujjat sifatida xalqimiz tomonidan iliq kutib olindi. Strategiyada ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan masalalardan hisoblangan ilm-fan, ta'lim-tarbiya tizimi, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va rivojlantirish alohida ta'kidlangan, ya'ni sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samardorligini oshirish kabi ustuvor masalalar yechimiga e'tibor qaratilgan.

Material va metodlar

Maqolada muallif o'zining keng ko'lamli faoliyatida huquq va til munosabatlari, adabiy til me'yorlari, yuridik matnda so'z va termin qo'llash talablarini puxta bilishga oid fikr va xulosalari bayon etildi, shuningdek, yuridik tildagi ba'zi muammolarni yoritishga harakat qilindi. Keltirilgan misollar rus tili yuridik terminologiyasi bilan qiyosiy tahlil etildi.

Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri fan va ishlab chiqarishning barcha sohalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Darhaqiqat, bizga jamiyat talablariga mos, bilimlarni puxta o'zlashtirgan, zamon nafasini his etadigan yangi avlod vakili – har tomonlama kamol topgan mutaxassislar kerak. Xuddi shunday, hozirgi zamon yurist mutaxassisi jamiyatda barqarorlik va huquqiy tartibni o'rnatish maqsadida, yurisprudensiya qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy munosabatlar qonuniylari va huquqiy qoidalarni chuqur bilgan, yangilanayotgan jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan o'z kasbining yetuk bilimdoni bo'lishi lozim. Shuningdek, zamonaviy yurist yetuk mutaxassis bo'lishi bilan bir qatorda davlat tilini mukammal bilishi zarur. Davrning o'zi har qanday malakali va yetuk kadrdan davlat tilini puxta bilishni taqozo etmogda.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyati yaratishning asosiy tamoyillaridan biri bu qonun ustuvorligini ta'minlash va insonlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Fuqarolarning qonunlarga qat'iy rioya qilishining asosiy omili uning aniqligi, puxtaligi va ravshanligidir. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u uchun qonunlar tabiatan adolatli va odamlar uchun tushunarli, ya'ni yaratilgan huquqiy hujjatlar tili batafsil, ravon bo'lishi kerak. Shu bois til va huquq bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Til bilimlarni yetkazish va shakllantirish, insonni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Huquq esa jamiyat hayotini tartibga soluvchi, bevosita nazorat qiluvchi vosita. Shunday ekan, har qanday hujjat sifati nafaqat ularni ishlab chiqaruvchilarning yuqori malakasi, balki ularning kommunikativ va adabiy savodxonligiga ham bevosita bog'liqdir. Mustaqillik tufayli ona tilimizda yangidan-yangi qonuniy akt va hujjatlarning qabul qilinishi, sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi hisoblangan yuridik til shakllanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi.

Tilning lug'at tarkibini puxta o'rganib, uni tadqiq etish tilshunoslikning muhim masalasi hisoblanadi. Hozirgi hayotimizni yuridik til leksikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ular hayo-

timizning barcha tarmoqlarida unumli qo'llaniladi. Afsuski, mazkur sohaga XX asrning 90-yillarigacha e'tibor berilmadi, o'zbek yuridik tili soha tili sifatida rivojlanmadi. Chunki qonunlarimiz mustaqil qabul qilinmas va yaratilmas edi. Inson huquqlari esa umuman o'rganilmagan, yuridik tilning ilmiy jihatlari ishlab chiqilmadi. Demak, huquq tili, qonunchilik uslubi, yuridik terminologiya muammolarini hal etish kabi masalalar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Chunki mamlakatimizning ravnaq topishida, demokratik huquqiy davlat qurishda huquq va tilning o'zaro aloqadorligi, ular o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotining huquq aralashmagan biror-bir sohasi yo'q. Shunday ekan, davlat hujjatlari va qonunlarini yaratishda, eng avvalo, adabiy til me'yorlari, yozma yuridik til talablari, yuridik tilning so'z boyligiga qat'iy rioya qilish zarur, aks holda, hujjat qiymati yo'qoladi. Yozma yuridik nutqning muhim ko'nikmalaridan biri – bu yozma huquqiy nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, atama va so'zlarning muqobilini tanlashdir.

To'g'ri, yurisprudensiya sohasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, qonun tili, yuridik texnika, huquqiy terminologiya bo'yicha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay, yurisprudensiya tilida hali o'zining to'liq yechimini topmagan qator muammolar mavjud. Xususan, shu kungacha yuridik sohada umumhuquqiy tezaurus talab darajasida yaratilmagan. To'g'ri, boshqa sohaga nisbatan yurisprudensiyada ko'plab lug'atlar mavjud. Ayniqsa, mustaqilligimizdan keyin respublikamizda qabul qilingan qonunlar, yo'riqnomalar bir me'yorga keltirildi, tartibga solindi, normalashtirilgan yuridik terminlar muloqotga kirdi. Bu, albatta, ijobiy holat. Biroq hanuzgacha yuridik terminlar borasida e'tirozga sabab bo'layotgan jihatlar ham yo'q emas. Ayrim huquq manbalarida terminlar uchun salbiy hodisa hisoblangan sinonimiyadan unumli foydalanilyaptiki, natijada matnda fikr chalkashligiga yo'l qo'yilmoqda. Vaholanki, yuridik termin birligi qoidasiga, ayniqsa, bir me'yoriy hujjatlar doirasida og'ishmay amal qilinmog'i lozim, aks holda, qonunchilik texnikasi buziladi, qonun mohiyati aniq tushunilmaydi. Shu o'rinda dalillarga murojaat qilamiz: *shartli hukm qilish – shartli jazo belgilash; shartli ozod qilish – shartli ravishda ozod qilish; murakkab aybli jinoyat*

– qasddan sodir etilgan jinoyat; jazo tayinlash – jazo belgilash; yuridik shaxsning nochorligi – yuridik shaxsning bankrotligi; elchi – vakil – konsul; mehnatga qobiliyatsizlik – mehnatga yaroqsizlik – mehnatga layoqatsizlik kabilar fikrimizning dalilidir. Lekin sinonim tarzida qo'llanilayotgan shu kabi qator so'z va birikmalar ham borki, ular bir xil yoki bir-biriga aynan o'xshash ma'nolarini ifodalamaydi. Masalan, "*auksion*" termini hozirgi kunda (ba'zi manbalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida) "*kimoshdi savdosi*" deb (*kimoshdi auksionning* sinonimi tarzida) ham yuritilmoqda. Lekin Fuqarolik kodeksining 379-moddasida esa shunday deyiladi: "*Kimoshdi savdosi auksion yoki tanlov* shaklida o'tkaziladi" (O'zbekiston Respublikasi kodekslari, 375-b.). Demak, *auksion* va *kimoshdi* aynan bir xil tushunchani anglatmay, *auksion kimoshdining* bir ko'rinishi ekan-da?!

Shuningdek, ilmiy jihatdan asosli andozalangan xalqaro siyosiy-huquqiy terminlarni tilimizda shakllantirishda milliy xususiyatlarimizning o'ziga xos jihatlari ham hisobga olish zarur. Hozirgi kunda *агреман – rozilik, запас – zaxira, новестка – chaqiruv qog'ozi, консенсус – kelishuv, петиция – arznoma, консульство – konsulxona, капитал – sarmoya* shaklida ishlatilyapti. Mazkur o'girishlar maqsadga muvofiq bo'lib, bunda tilimizning milliy jihat va imkoniyatlari e'tiborga olingan. Bu ijobiy hol, albatta. Ammo ayrim terminlar terminologiyaning talabiga javob bermayapti, ular no'rin qo'llanib kelinmoqda. Masalan: *kongress – anjuman, konferensiya – anjuman, simpozium – anjuman* kabi. Lekin "*kongress – muhim siyosiy, ilmiy va boshqa masalalar yuzasidan o'tkaziladigan xalqaro syezd, kengash*" bo'lsa, "*konferensiya – davlatlar, partiya, ijtimoiy, ilmiy va shu kabi tashkilotlar vakillarining biror masalani muhokama qilish, hal etish uchun chaqirilgan majlisi, kengashi*"dir [1]. *Simpozium* esa yig'ilish, muayyan bir ilmiy mavzu doirasida (odatda, turli mamlakatlardan kelgan mutaxassislar ishtirokida) o'tkaziladigan tadbir.

Demak, *kongress, konferensiya, simpozium* o'rtasida farq bor.

Ma'lumki, jamiyat rivojlanar ekan, tabiiyki, yangi tushuncha va so'zlar paydo bo'ladi. Tabiiy bu jarayonda tillarning o'zaro ta'siri va aralashuvi katta ahamiyatga ega. Chunki ayni shu jihat ham milliy lug'at tarkibining boyishiga sabab bo'ladi, yangi til birliklari yaralishiga sharoit yaratadi. De-

mak, bu holat har bir millat tili leksikasida o'zlashgan so'zlar qatlamini hosil qiladi. Ushbu qatlam mavjudligi xorijiy so'zni o'z holicha qabul qilish yoki tarjima qilish evaziga bo'ladi. Tarjimachilik so'z yoki so'z birikmasining original tushunchasini yuzaga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Chunki o'zlashayotgan leksika yoki so'z birikmasining aniq tushunilishi ma'no chalkashligiga yo'l qo'ymaydi, jummalarni to'g'ri tuzish uchun imkon yaratadi.

Tilshunoslikning talabiga ko'ra, biror-bir tilga boshqa tildan so'z yoki so'z birikmasi o'zlashtirilsa, bunda o'sha so'z yoki fikrning originaldagi ma'nosi diqqat-e'tiborda bo'lmog'i shart, aks holda, so'z mavqeyiga putur yetadi.

Afsuski, tarjimachilik sohasida nafaqat yuridik tilda, balki boshqa soha tillarida ham bir qator kamchilik va nuqsonlar mavjud: *seyf – yonmas sandiq; universitet, institut, akademiya – oliygoh; begemot – suv oti; jurnal – jarida; massaj – uqalash; veteran – kayvoniy; pensiya – nafaqa; transport – naqliyot; deklaratsiya – bayonnoma, bayonot; arxiv – hujjatxona; kodeks – majmua; ekspertiza – tahqiq yoki muoyana* kabi tarjima variantlari shular jumlasidandir.

Yuridik tilning yozma shakli qoidalari ham soha mutaxassisleri tomonidan to'liq o'rganilmagan. Matn tuzish, atamani to'g'ri yozish, tarjima qilish sohasida hali ham jiddiy kamchiliklar mavjud. Huquqqa oid matnlarda imlo va punktuatsiya xatolari bot-bot ko'zga tashlanib qolmoqda, uzundan-uzun jummalarni tuzish natijasida chalkashliklar yuzaga kelmoqda. Shu bois rasmiy uslubda yozilgan har qanday hujjat professional tarzda tahlil qilinishi va puxta shakllantirilishi kerak. Bunda nutqning aniqligi, izchilligi, tozaligi, puxtaligi kabi lingvistik va ekstralingvistik kommunikativ mezonlarga qat'iy rioya qilish zarur.

Hozirgi kunning eng dolzarb, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalaridan biri soha tilining tezaurusini tuzishdir. To'g'ri, yuridik sohada yaratilgan ko'plab lug'at va qomuslarning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu manbalarning maqsadi bitta: huquq terminologiyasini tartibga solish. Mazkur vazifa ma'lum darajada bajarildi ham, ya'ni sohalarda ishlatilayotgan tushunchalarni to'g'ri ifodalovchi ko'plab terminlar yaratildi.

Xulosalar

Hayotning o'zi nutq madaniyati muammosini ham kun tartibiga qo'ymoqda, chunki nutq madaniyatisiz jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qi-

yofasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Haqiqiy san'at sifatida keng ma'noda yuristning nutq madaniyati, buyuk Aflotunning fikriga ko'ra, "his-tuyg'ular va ehtirolarni tartibli holatga keltiradigan, shu bilan birga, eng yuqori adolatni o'zida mujassam etadigan ijodiy faoliyatdir".

Shunday ekan, "Yuristning nutq madaniyati", "Yuristning yozma nutqi", "Yuridik til leksikasi" kabi fanlarni bo'lajak yuristlarning kasbiy fazilatlarini shakllantiradigan maxsus fanlar qatorida asosiy modullar sifatida ta'lim dasturlariga kiritish lozim. Mazkur fanlar bo'lajak yuristlarning tilni talab darajada bilishi, muomala odobi, tillarni his etish didini tarbiyalash kabi muhim g'oyani o'z oldiga bosh maqsad qilib qo'yadi, ularning kasbiy darajasiga ijobiy ta'sir qiladi va quyidagi vazifalarni belgilaydi:

rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, tilni mukammal biladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

yurist-talabalarning tilni mukammal bilish darajasi va sifatini yanada oshirish;

professional nutqda o'zbek tili vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanishga o'rgatish;

talabalarning yozma va og'zaki yuridik nutqlarini takomillashtirish;

o'zbek tili talaffuz omillaridan vaziyat va voqeelik talabiga ko'ra mohirona foydalana olish qobiliyatlarini shakllantirish;

til ta'limi yuzasidan malaka va ko'nikma hosil qilish kabilar.

Xullas, huquq va til bir-biriga bog'liq, ajralmas tushunchalardir. Huquqshunoslikning har qanday g'oyasi, munosabati, tushunchasi uning nechog'lik til bilishida, leksikonida ifodalanadi.

Huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati yaratishning asosiy tamoyillaridan biri – bu qonun ustuvorligini ta'minlash, insonlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishdir. Fuqarolarning qonunga qat'iy rioya qilishining asosiy omili esa qonunlarning aniq, puxta va tushunarli bo'lishidir. Ya'ni qonunlar tili sodda va ravon bo'lishi, huquqiy atamalar ilmiy-amaliy jihatdan bir tartibga solingan bo'lib, yuridik til talablariga javob berishi zarur. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirib o'tish joiz: «Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz».

REFERENCES

1. O'zbek tilining izohli lug'ati [Annotated dictionary of the Uzbek language]. Moscow, Rus tili Publ., 1981, vol. 1, pp. 395, 397.
2. Mahmudov N. va boshq. Ish yuritish asoslari [Basics of office work]. Tashkent, UzME Publ., 2006.
3. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. Darslik [The culture of speech of a lawyer. Textbook]. Tashkent, TSUL Publishing House, 2010.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov. N. Ish yuritish. [Stationery]. Tashkent, 2010.
5. Steve Taylore – Knowles. Reading and Writing. M. Mann. 2011.
6. Ko'chimov Sh.N. Yuridik til nazariyasi [Theory of legal language]. Tashkent, UWED Publishing House, 2013.
7. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish [Record keeping in the state language]. Tashkent, 2015.
8. Bailey S. Academic Writing: A Handbook for International Students. Fourth Edition, 2015.
9. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma [Record keeping. Practical guide]. Tashkent, Publishing House of the National Encyclopedia of Uzbekistan, 2017.
10. Potapov M.G., Balakina I.V. Osnovy juridicheskoy terminologii. Uchebnoe posobie [Basics of legal terminology]. Novosibirsk, NGTU Publ., 2017.
11. Figueroa García-Herreros, N. Legality, Legitimacy and Democratic.
12. Constitution Making. Jus Cogens 1, 209, pp. 97-109.
13. Mahmudov N. va b. Davlat tilida ish yuritish. 9-nashri [Record keeping in the state language]. 9th ed. Tashkent, 2020.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.